# QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASINING TASHQI SAVDO AYLANMASI
## *(2022-yil yanvar-iyun oylari uchun dastlabki ma’lumot)*

Respublika iqtisodiyotini rivojlantirish strategiyasi diversifikatsiyalangan va raqobatbardosh iqtisodiyotni yaratishga, innovatsion texnologiyalar va bozorni boshqarishning yangi usullaridan foydalangan holda milliy resurslardan maksimal darajada foydalanishga yo‘naltirilgan. Mamlakatning tashqi iqtisodiy faoliyati, xususan tashqi savdo sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning pirovard natijasi aholining turmush darajasiga bevosita o‘z ta‘sirini o‘tkazadi.

2022- yilning yanvar-iyun oylari yakuni bilan respublikaning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 303,6 mln. AQSh dollarini tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 28,7 mln. AQSh dollariga yoki 91,4 % ni tashkil etdi.



**TASHQI SAVDO AYLANMASI VA BALANSI**
***(yanvar-iyun oylari, ming AQSh dollari)***

| | 2021- yil | 2022- yil | O‘sish sur’ati, % da | Jamiga nisbatan, % da |
|---|---|---|---|---|
| Tashqi savdo aylanmasi | 332 292,3 | 303 610,1 | 91,4 % | x |
| **Eksport** | **220 682,8** | **188 778,9** | 85,5 % | **100,0** |
| *tovarlar* | *219 184,7* | *186 292,7* | *85,0* | *98,7* |
| *xizmatlar* | *1 498,2* | *2 486,2* | *166,0* | *1,3* |
| *oltin* | - | - | - | - |
| **Import** | **111 609,4** | **114 831,2** | 102,9 % | **100,0** |
| *tovarlar* | *106 513,4* | *110 559,1* | *103,8* | *96,3* |
| *xizmatlar* | *5 096,1* | *4 272,1* | *83,8* | *3,7* |
| **Saldo** | **89 718,3** | **56 452,7** | **x** | **x** |

*Ma’lumot uchun: O‘zbekiston Respublikasida tovarlar tashqi savdosi statistika ko‘rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat Tovar nomenklaturasi (keyingi o‘rinlarda TIF TN) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o‘rinlarda – XSST) ishlatiladi. Bu o‘z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni XSST bo‘yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o‘rtasida o‘tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.*

TSA da eksport hajmi 188,8 mln. AQSh dollariga (14,5 % ga kamaydi) va import hajmi 114,8 mln. AQSh dollariga (2,9 % ga ko‘paydi) yetdi. Hisobot davrida 73,9 mln. AQSh dollari qiymatida ijobiy tashqi savdo balansi qayd etildi.

**QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASI BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO‘LGAN DAVLATLAR**
***(2022- yil yanvar-iyun oylari, mln. AQSh dollari)***

| | TSA | Eksport | Import |
|---|---|---|---|
| **Turkiya** | 65,1 | 59,3 | 5,8 |
| **Xitoy Xalq Respublikasi** | 89,2 | 46,4 | 42,8 |
| **Latviya** | 26,5 | 26,0 | 0,5 |
| **Rossiya Federasiyasi** | 47,5 | 18,4 | 28,9 |
| **Qozog‘iston** | 24,2 | 12,7 | 11,5 |
| **Koreya Respublikasi** | 15,7 | 8,9 | 6,8 |
| **Afg‘oniston** | 2,9 | 2,9 | 0,0 |
| **Qirg‘iz Respublikasi** | 4,1 | 2,4 | 1,7 |
| **Ukraina** | 1,7 | 1,6 | 0,1 |
| **Fransiya** | 1,2 | 1,1 | 0,1 |

Qoraqalpog‘iston Respublikasi, jahonning 49 dan ortiq mamlakatlari bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSA ning nisbatan salmoqli hissasi Xitoy Xalq Respublikasida (29,4 %), Latviyada (8,7 %), Rossiya Federatsiyasida (15,6 %), Qozog‘istonda (8,0 %), Koreya Respublikasi (5,2 %), Turkiyada (21,4 %) va Afg‘onistonda (1,0 %) qayd etilgan.

Iqtisodiyotning real sektori tarmoqlari va korxonalarining barqaror va uzluksiz ishlashini ta’minlash uchun respublikada zarur resurslar bazasi yaratilgan. Eksport tarkibida sezilarli o‘zgarishlarga import tovarlarning o‘rnini bosadigan mahsulotlar ishlab chiqarish va sanoat ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish natijasida erishildi.

Shuningdek, qo‘shni davlatlar bilan o‘zaro aloqalarni mustahkamlash, mamlakatlarni ijtimoiy-iqtisodiy, savdo-sanoat hamda madaniy sohalardagi aloqalarini rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirilayotganini ko‘rish mumkin.

TSA da so‘nggi yillarda katta o‘zgarishlar kuzatilyapti. Misol uchun, so‘nggi uch yilda TSAda Qirg‘iziston, Afg‘oniston va Tojikiston bilan tashqi savdo aylanmasi oshgani kuzatilmoqda. Boshqa davlatlar (qo‘shni davlatlardan tashqari) bilan esa, TSA da eng yuqori ulushTurkiya, Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi va Latviya davlatlari hissasiga to‘g‘ri kelgan.



**TO‘RTTA FAOL TASHQI SAVDO BALANSI KUZATILGAN DAVLATLAR**
***(yanvar-iyun oylari, mln. AQSh dollari)***




Tashqi iqtisodiy faoliyat bo‘yicha 20 ta yirik hamkor davlatlar orasidan 12 ta davlatda faol tashqi savdo balansi kuzatilgan, xususan, Turkiya (65,1 mln. AQSh dollari), Xitoy Xalq Respublikasi (89,2 mln. AQSh dollari), Rossiya (47,5 mln. AQSh dollari) va Latviya (26,5 mln. AQSh dollari) shular jumlasidandir. Qolgan 6 ta davlatlar bilan passiv tashqi savdo balansi saqlanib qolmoqda.

## QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI

*(yanvar-iyun oylari, ming. AQSh dollari)*

| Davlat nomi | 2020-yil | 2021- yil | 2022- yil |
|---|---|---|---|
| **Turkiya** | **25652,6** | **55421,4** | **65071,7** |
| Eksport | 24940,9 | 49861,9 | 59274,3 |
| Import | 711,7 | 5559,5 | 5797,4 |
| Saldo | 24229,2 | 44302,4 | 53476,9 |
| **Xitoy Xalq Respublikasi** | **54885,1** | **83116,5** | **89204,8** |
| Eksport | 42746 | 62235,9 | 46387,9 |
| Import | 12139,1 | 20880,6 | 42816,9 |
| Saldo | 30606,9 | 41355,3 | 3571 |
| **Latviya** | **11313,2** | **19385,4** | **26531,0** |
| Eksport | 9336,2 | 17754,7 | 26020,3 |
| Import | 1977 | 1630,7 | 510,7 |
| Saldo | 7359,2 | 16124 | 25509,6 |
| **Rossiya Federasiyasi** | **48599,1** | **57847,5** | **47486,4** |
| Eksport | 36715,7 | 39306,9 | 18542,9 |
| Import | 11883,4 | 18540,6 | 28943,5 |
| Saldo | 24832,3 | 20766,3 | -10400,6 |
| **Qozog‘iston** | **22398,4** | **30784,5** | **24205,8** |
| Eksport | 15559,6 | 19605,7 | 12671,0 |
| Import | 6838,8 | 11178,8 | 11534,8 |
| Saldo | 8720,8 | 8426,9 | 1136,2 |
| **Koreya Respublikasi** | **14295,6** | **11283,5** | **15699,1** |
| Eksport | 2062,4 | 1890,4 | 8920,6 |
| Import | 12233,2 | 9393,1 | 6778,5 |
| Saldo | -10170,8 | -7502,7 | 2142,1 |

| Davlat nomi | 2020-yil | 2021- yil | 2022- yil |
|---|---|---|---|
| **Afg‘oniston** | **1403,0** | **2396,0** | **2871,0** |
| Eksport | 1390,6 | 2396,0 | 2871,0 |
| Import | 12,4 | | |
| Saldo | 1378,2 | 2396,0 | 2871,0 |
| **Qirg‘iz Respublikasi** | **1447,0** | **4696,8** | **4072,7** |
| Eksport | 777 | 2788,4 | 2369,1 |
| Import | 670 | 1908,4 | 1703,6 |
| Saldo | 107 | 880 | 665,5 |
| **Gruziya** | **109,9** | **1161,3** | **1865,8** |
| Eksport | 96,9 | 1161,3 | 1787 |
| Import | 13 | | 78,8 |
| Saldo | 83,9 | 1161,3 | 1708,2 |
| **Ukraina** | **1671,3** | **9302,9** | **1679,9** |
| Eksport | 1124,9 | 8779,7 | 1613,1 |
| Import | 546,4 | 523,2 | 66,8 |
| Saldo | 578,5 | 8256,5 | 1546,3 |
| **Fransiya** | **11,8** | **1861,3** | **1195,9** |
| Eksport | | 1240,7 | 1036,9 |
| Import | 11,8 | 620,6 | 159 |
| Saldo | -11,8 | 620,1 | 877,9 |
| **Iron** | **1015,5** | **2849,1** | **1218** |
| Eksport | | 1434,3 | 576,1 |
| Import | 1015,5 | 1414,8 | 641,9 |
| Saldo | -1015,5 | 19,5 | -65,8 |
| **Turkmaniston** | **1076,8** | **1640,8** | **1210,5** |
| Eksport | 293 | 485,8 | 571,9 |
| Import | 783,8 | 1155 | 638,6 |
| Saldo | -490,8 | -669,2 | -66,7 |

| Davlat nomi | 2020-yil | 2021- yil | 2022- yil |
|---|---|---|---|
| **Ozarbayjon** | **66,9** | **192,9** | **500,2** |
| Eksport | | 192,9 | 500,2 |
| Import | 66,9 | | |
| Saldo | -66,9 | 192,9 | 500,2 |
| **Tojikiston** | **1014,6** | **2061,7** | **409,6** |
| Eksport | 1014,6 | 2061,7 | 409,6 |
| Import | | | |
| Saldo | 1014,6 | 2061,7 | 409,6 |
| **Germaniya** | **617,0** | **5434,7** | **1119,9** |
| Eksport | 274,5 | 415,7 | 321,2 |
| Import | 342,5 | 5019 | 798,7 |
| Saldo | -68 | -4603,3 | -477,5 |
| **Portugaliya** | **0** | **98,1** | **251,5** |
| Eksport | | 98,1 | 251,5 |
| Import | | | |
| Saldo | 0 | 98,1 | 251,5 |
| **Iroq** | **1180,7** | **1177,2** | **223,9** |
| Eksport | 1180,7 | 1177,2 | 223,9 |
| Import | | | |
| Saldo | 1180,7 | 1177,2 | 223,9 |
| **Yaponiya** | **185,4** | **293,3** | **1114,3** |
| Eksport | | 132,6 | 141,7 |
| Import | 185,4 | 160,7 | 972,6 |
| Saldo | -185,4 | -28,1 | -830,9 |
| **Tayban** | **82,5** | **59,0** | **122,4** |
| Eksport | 82,5 | 59,0 | 122,4 |
| Import | | | |
| Saldo | 82,5 | 59 | 122,4 |

Qoraqalpog‘iston Respublikasi tashqi savdo aylanmasining uchdan bir qismi MDH davlatlariga to‘g‘ri keladi va bu ko‘rsatkich so‘ngi yillarda biroz o‘zgardi.

Respublikamizda tashqi savdoni qo‘llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo‘yicha olib borilayotgan chora-tadbirlarga qaramay, 2022- yilning yanvar-iyun oylarida, tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 26,5 % ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasidagi 2021- yilga nisbatan ulushi 5,8 % ga kamaydi.



**QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI**
***(yanvar-iyun oylari, mln. AQSh dollari, ulushi, % da)***




Boshqa xorijiy davlatlarning TSAsi 2022- yilning yanvar-iyun oylarida 2021- yilning shu davriga nisbatan 0,8 % ga kamaydi va jami TSAdagi ulushi 73,6 % ni tashkil etdi.

## QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASINING EKSPORTI
*(2022-yil yanvar-iyun oylari)*

Joriy yilning yanvar-iyun oylarida mamlakatning eksportyorlari soni 119 tani tashkil etib, ular tomonidan 188,8 mln. AQSh dollari (qimmatbaho metallar eksportidan tashqari) qiymatidagi (2021- yilning mos davriga nisbatan 85,5 % ni tashkil etdi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta’minlandi.

Eksport tarkibida tovarlar ulushi 97,9 % ni tashkil etib, ular asosan kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o‘xshash mahsulotlar (67,6 %),sanoat tovarlari (14,0 %), nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg‘idan tashqari (11,2 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (5,1 %) hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.




### XSST BO‘YICHA EKSPORT TARKIBI
*(2022- yil yanvar-iyun oylari, ulushi, % da)*



# MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARGA EKSPORT TARKIBI
*(2022-yil yanvar-iyun)*

| XSST tarkibi | Jami | | | MDH davlatlari | | | Boshqa davlatlar | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | mingAQSh dollari | o‘tgan yilga nisbatan, % da | umumiy hajmga nisbatan, % da | mingAQSh dollari | o‘tgan yilga nisbatan, % da | umumiy hajmga nisbatan, % da | mingAQSh dollari | o‘tgan yilga nisbatan, % da | umumiy hajmga nisbatan, % da |
| **Jami eksport** | **188 778,9** | **85,5** | **100,0** | **36 781,2** | **50,2** | **100,0** | **151 997,8** | **103,1** | **100,0** |
| shu jumladan: | | | | | | | | | |
| Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar | 9 608,7 | 98,2 | 5,1 | 3 730,7 | 93,2 | 10,1 | 5 878,0 | 101,7 | 3,9 |
| Ichimliklar va tamaki | 0,0 | 0,0 | 0,0 | | 0,0 | 0,0 | | - | - |
| Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg‘idan tashqari | 21 209,6 | 83,1 | 11,2 | 598,9 | 25,8 | 1,6 | 20 610,8 | 88,8 | 13,6 |
| Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shunga o‘xshash materiallar | 0,0 | 0,0 | 0,0 | | 0,0 | 0,0 | | 0,0 | 0,0 |
| Hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar | - | - | - | | - | - | | - | - |
| Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o‘xshash mahsulotlar | 127 553,4 | 81,4 | 67,6 | 25 389,9 | 42,5 | 69,0 | 102 163,5 | 105,3 | 67,2 |
| Sanoat tovarlari | 26 340,6 | 102,6 | 14,0 | 4 965,4 | 97,0 | 13,5 | 21 375,3 | 104,0 | 14,1 |
| Mashinalar va transport asbob-uskunalari | 23,7 | 478,3 | 0,0 | 23,7 | - | - | | - | - |
| Turli xil tayyor buyumlar | 1 556,6 | 521,9 | 0,8 | 1 556,6 | 1 078,7 | 4,2 | | 0,0 | 0,0 |
| Xizmatlar | 2 486,2 | 166,0 | 1,3 | 516,0 | 41,1 | 1,4 | 1 970,2 | 809,4 | 1,3 |

MDH mamlakatlari va boshqa mamlakatlarga eksportning yo‘nalishi bo‘yicha farqlanishlar mavjudligi kuzatilmoqda. Xususan, MDH mamlakatlariga eksportning asosiy qismi kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o‘xshash mahsulotlar hissasiga to‘g‘ri kelmoqda, eksport hajmi bo‘yicha keyingi o‘rinlar sanoat tovarlari,oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar hamda nooziq-ovqat xomashyoga(yoqilg‘idan tashqari) to‘g‘ri kelmoqda.

2022- yilning yanvar-iyun oyida eksport qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibining tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, tovarlar va xizmatlar tarkibida sezilarli o‘zgarishlar qayd etilmadi, biroq shuni ta‘kidlash joizki, 2021- yilning yanvar-iyunga nisbatan, nooziq-ovqat xomashyo (yoqilg‘idan tashqari),sanoat tovarlari hamda xizmatlardan tashqari barcha tovar guruhlarida o‘sish kuzatildi.




**EKSPORT TARKIBI DINAMIKASI**
***(yanvar-iyun oylari, % da)***

| XSST tarkibi | 2020-yil | 2021- yil | 2022- yil |
|---|---|---|---|
| **Jami** | **100,0** | **100,0** | **100,0** |
| Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar | 5,6 | 4,4 | 5,1 |
| Ichimliklar va tamaki | 0,0 | 0,0 | 0,0 |
| Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg‘idan tashqari | 13,0 | 11,6 | 11,2 |
| Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shunga o‘xshash materiallar | 0,2 | 0,5 | 0,0 |
| Hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar | 0,4 | 0,0 | 0,0 |
| Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o‘xshash mahsulotlar | 70,6 | 71,0 | 67,6 |
| Sanoat tovarlari | 8,8 | 11,6 | 14,0 |
| Mashinalar va transport asbob-uskunalari | 0,0 | 0,0 | 0,0 |
| Turli xil tayyor buyumlar | 1,0 | 0,1 | 0,8 |
| Xizmatlar | 0,4 | 0,7 | 1,3 |



## XSST BO‘LIMI BO‘YICHA AYRIM MAHSULOTLAR EKSPORTI TARKIBI
*(2022-yil yanvar-iyun)*

| XSST bo‘limi nomi | Ming AQSh dollari | 2020- yilning mos davriga nisbatan, % da |
|---|---|---|
| **Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar** | | |
| Sabzavotlar va mevalar | 6 712,0 | 90,8 |
| Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar | 2 854,0 | 129,6 |
| Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar | 5,1 | 3,2 |
| Shakar, shakardan tayyorlangan mahsulotlar va asal | 25,5 | 109,0 |
| Har hil oziq-ovqat mahsulotlari va preparatlar | | |
| Sut mahsulotlari va parranda tuxumlari | 12,1 | 526,1 |
| **Ichimliklar va tamaki** | | |
| Ichimliklar | | |
| **Nooziq-ovqatxomashyo, yoqilg‘idan tashqari** | | |
| Hayvonlar va o‘simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari | 14 214,0 | 77,6 |
| To‘qimachilik tolalari va ularning chiqindilari | 845,8 | 13,4 |
| Moy olinadigan urug‘lar va mevalar | 86,6 | 205,7 |
| O‘g‘itlar uchun xomashyo va mineral xomashyo (ko‘mir, neft va qimmatbaho toshlardan tashqari) | 6 063,2 | 23,7 b |
| **Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shunga o‘xshash materiallar** | | |
| Neft va neft mahsulotlari va shunga o‘xshash materiallar | | |
| **Hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar** | | |
| O‘simlikmoylarivayog‘lari (xom, tozalanganyokifraksiyalangan) | - | - |
| **Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o‘xshash mahsulotlar** | | |
| Noorganik kimyo moddalari | 111,2 | 315,0 |
| Birlamchi shakldagi plastmassalar | 127 332,0 | 81,3 |
| Efir moylari, rezinoidlar va attorlik moddalari; xojatxona preparatlari, polirovkalash va yuvish vositalari | 89,8 | 83,5 |
| Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar | | |
| Bo‘yaydigan va terini oshlovchi moddalar va bo‘yoqlar | 0,1 | 2,0 |
| Birlamchi bo'lmagan shakldagi plastmassalar | 20,4 | 51,0 b |

| | | |
|---|---|---|
| **Sanoat tovarlari** | | |
| To‘qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o‘xshash mahsulotlar | 17 994,1 | 75,4 |
| Probka va daraxtdan tayyorlangan buyumlar (mebeldan tashqari) | 21,3 | 687,1 |
| Boshqa boshqa bo'lmagan metall buyumlar | 206,4 | - |
| Ruda bo‘lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar | | |
| Teri, boshqa bo'lmagan tayyor charm mahsulotlari, mo'ynalar | | |
| Boshqa toifalarga kiritilmagan, metall bo'lmagan minerallardan olingan mahsulotlar | 8 118,8 | 449,6 |
| **Mashinalar va transport asbob-uskunalari** | | |
| Avtomobillar | | |
| Elektr mashinalari, apparatlar, asboblar va ularning ehtiyot qismlari | 12,5 | |
| Sanoat uchun maxsus bo‘lmagan mashinalar va ularning detallari | 10,3 | 12,9 b |
| Elektr aloqasi, ovozni yozish va eshittirish apparaturalari va uskunalari | | |
| Energiya generatori mashinalari va asbob-uskunalar | 1,0 | 30,3 |
| Maxsus bo'limlar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar | 12,5 | |
| **Turli xil tayyor buyumlar** | | |
| Har xil tayyor buyumlar | 49,7 | 84,8 |
| Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari | 694,7 | 309,2 |
| Кiyim-кechaklarva кiyim-кechaк anjomlari | 804,6 | 57,5 b |
| Santexnika, isitish va yoritish uskunalari uchun binolar, armatura va armatura bloklari, boshqa toifalarga kiritilmagan | | |
| Mebel va ularning qismlari, ko'rpa-to'shaklar, matraslar, matraslar, yostiqlar va shunga o'xshash to'ldirilgan mebellar | 7,2 | |
| Поебзал | 0,3 | |
| **Xizmatlar** | | |
| Moliyaviy xizmatlar | 285,9 | 84,6 |
| Transport xizmatlari | 126,3 | 15,0 |
| Safarlar (turizm) | 139,3 | 43,9 |
| Boshqa ish yuzasidagi xizmatlar | - | - |
| Qurilish xizmatlari | 1 934,7 | - |

So‘nggi uch yilda MDH mamlakatlariga eksport hajmi kamaydi va ularning jami eksportdagi ulushi 2020-yilning yanvar-iyunga 39,4 % dan 2022- yilning yanvar-iyun oylarida 19,5 % ga kamaydi. Mos ravishda boshqa mamlakatlarning jami eksportdagi ulushi 80,5 % ni tashkil etdi.



**MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTINING HAJMLARI DINAMIKASI**
***(yanvar-iyun oylari, mln. AQSh dollari, ulushi, % da)***




2022- yilning yanvar-iyun oylari yakunida tovar va xizmatlar eksporti bo‘yicha asosiy hamkor davlatlar tarkibida Turkiya (31,4 %), Xitoy Xalq Respublikasi (eksport umumiy hajmining 24,6 % i), Latviya (13,8 %), Rossiya Federatsiyasi (9,8 %), Qozog‘iston (6,7 %), Koreya Respublikasi (4,7 %) va Afg‘oniston (1,5 %) davlatlari saqlanib qolmoqda hamda ularning jami eksportdagi ulushi 92,5 foizni tashkil etmoqda.

## RESPUBLIKA EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI

*(2022-yil yanvar-iyun oylari,% da)*




2022- yilning yanvar-iyun oylarida, o‘tgan yildagi kabitovarlar va xizmatlar eksporti bo‘yicha asosiy hamkor davlatlardan yetakchi bo‘lgan Xitoy Xalq Respublikasining ikki pog‘onaga tushishi hisobiga, Turkiya eksportdagi ulushi bo‘yicha peshqadamlikni oldi.

Joriy yilning yanvar-may oylarida hamkor mamlakatlarning tovarlar va xizmatlar eksporti bo‘yicha geografiyasi 2021-yilning mos davriga nisbatan 46 davlatdan 39 davlatni tashkil etdi.



## QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN EKSPORTI HAJMI VA O‘SISH SUR‘ATLARI
***(2022- yil yanvar-iyun oylari, ming AQSh dollari)***

| Davlatlar | Ming AQSh dollari | | O‘sish sur‘ati, % da | | O‘rni | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | 2021-y. | 2022-y. | 2021-y. | 2022-y. | 2021-y. | 2022-y. |
| Turkiya | 49861,9 | 59274,3 | 199,9 | 118,9 | 2 | 1 |
| Xitoy Xalq Respublikasi | 62235,9 | 46387,9 | 145,6 | 74,5 | 1 | 2 |
| Latviya | 17754,7 | 26020,3 | 190,2 | 146,6 | 5 | 3 |
| Rossiya | 39306,9 | 18542,9 | 107,1 | 47,2 | 3 | 4 |
| Qozog‘iston | 19605,7 | 12671,0 | 126,0 | 64,6 | 4 | 5 |
| Koreya Respublikasi | 1890,4 | 8920,6 | 91,7 | 471,9 | 11 | 6 |
| Afg‘oniston | 2396,0 | 2871,0 | 172,3 | 119,8 | 8 | 7 |
| Soedinennoe Korolevstvo | 1055,6 | 2845,7 | | 269,6 | 17 | 8 |
| Qirg‘iz Respublikasi | 2788,4 | 2369,1 | 358,9 | 85,0 | 7 | 9 |
| Gruziya | 1161,3 | 1787,0 | 1197,9 | 153,9 | 16 | 10 |
| Ukraina | 8779,7 | 1613,1 | 780,5 | 18,4 | 6 | 11 |
| Fransiya | 1240,7 | 1036,9 | | 83,6 | 14 | 12 |
| Turkmaniston | 485,8 | 571,9 | 165,8 | 117,7 | 18 | 13 |
| Ozarbayjon | 192,9 | 500,2 | | 259,2 | 23 | 14 |
| Tojikiston | 2061,7 | 409,6 | 203,2 | 19,9 | 10 | 15 |
| Germaniya | 415,7 | 321,2 | 151,4 | 77,3 | 20 | 16 |
| Portugaliya | 98,1 | 251,5 | | 256,5 | | 18 |
| Iroq | 1177,2 | 223,9 | 99,7 | 19,0 | 15 | 19 |

Ushbu mamlakatlarga eksport qilinayotgan tovarlar tarkibiga asosan kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o‘xshash mahsulotlar, sanoat tovarlari hamda nooziq-ovqat xomashyo (yoqilg‘idan tashqari) kiradi.

## RESPUBLIKANING AYRIM DAVLATLAR BILAN EKSPORT TARKIBI
*(2022- yil yanvar-iyun oylari, ming AQSh dollari)*

| XSST tarkibi | Xitoy | | Turkiya | | Rossiya | | Latviya | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | 2021-y. | 2022-y. | 2021-y. | 2022-y. | 2021-y. | 2022-y. | 2021-y. | 2022-y. |
| **Jami eksport** | **62 235,9** | **42 816,9** | **5 559,5** | **5 797,4** | **18 540,6** | **18 542,9** | **1 630,7** | **510,7** |
| shu jumladan: | | | | | | | | |
| Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar | 30,9 | 49,5 | 14,1 | 0,3 | 1155,9 | 1646,1 | 207,0 | |
| Ichimliklar va tamaki | | | | | | | | |
| Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg‘idan tashqari | | | | 63,3 | 5758,8 | 9482,1 | | |
| Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shunga o‘xshash materiallar | | | | | 715 | 2216,3 | 1150,4 | 488,4 |
| Hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar | | | | | 3529,7 | 3317,8 | | |
| Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o‘xshash mahsulotlar | 711,7 | 3422,0 | 422,3 | 2004,7 | 1100,4 | 957,8 | 273,3 | |
| Sanoat tovarlari | 1087,0 | 1768,4 | 206,6 | 110,7 | 4218,2 | 10098,5 | | |
| Mashinalar va transport asbob-uskunalari | 18142,4 | 36995,9 | 3583,3 | 3576,9 | 553,0 | 586,3 | | 22,3 |
| Turli xil tayyor buyumlar | 858,6 | 531,0 | 1333,3 | 41,6 | 32,9 | 633,6 | | |
| Xizmatlar | 50,0 | 50,0 | | | 1476,7 | 5,0 | | |

Xizmatlar eksporti hajmi 2 486,2 ming AQSh dollarini yoki jami eksport hajmining 1,3 % ulishini tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 0,6 % ulishiga ko‘payganligi kuzatildi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi safarlar (turizm) (5,6 %), transport (5,1 %), qurilsh (77,8 %) hamda moliyaviy xizmatlar (11,5 %) hissasiga to‘g‘ri kelgan.

**XIZMATLAR EKSPORTI TARKIBI**
***(2022- yil yanvar-iyun, ulushi, % da)***




## QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASINING IMPORTI *(2022-yil yanvar-iyun)*

2022- yilning yanvar-iyun oylarida import hajmi 114,8 mln. AQSh dollarini va 2021- yilning mos davriga nisbatan 102,9 % ni tashkil etdi.

Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob-uskunalari (39,8 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (12,9 %) hamda kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o‘xshash mahsulotlar (11,2 %) hisobiga to‘g‘ri keldi.




## XSST BO‘LIMI BO‘YICHA IMPORT TARKIBI
*(2022- yil yanvar-iyun oylari, ulushi, % da)*




Tovarlar importi dinamikasi tahliliga ko‘ra, 2022- yilning yanvar-iyun oylarida import qilingan tovarlar hajmi, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 114,8 mln. AQSh dollariga ko‘paydi va 102,9 % ni tashkil etdi. Xizmatlar importi esa 4,3 mln. AQSh dollariga yetdi.

## MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARDAN IMPORT TARKIBI
*(2022-yil yanvar-iyun)*

| Tarkibi | Jami | | | MDH davlatlari | | | Boshqa davlatlar | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | ming AQSh dollari | o‘tgan yilga nisbatan, % da | umumiy hajmga nisbatan, % da | ming AQSh dollari | o‘tgan yilga nisbatan, % da | umumiy hajmga nisbatan, % da | ming AQSh dollari | o‘tgan yilga nisbatan, % da | umumiy hajmga nisbatan, % da |
| **Jami import** | **114821,2** | **308,3** | **100,0** | **43 340,7** | **385,5** | **100,0** | **71 490,5** | **274,9** | **100,0** |
| Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar | 14 866,9 | 248,0 | 12,9 | 12 746,8 | 369,5 | 29,4 | 2 120,1 | 83,3 | 3,0 |
| Ichimliklar va tamaki | - | - | - | 10,0 | - | - | | - | - |
| Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg‘idan tashqari | 9 725,4 | 535,7 | 8,5 | 9 605,5 | 529,1 | 22,2 | 119,9 | - | 0,2 |
| Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shunga o‘xshash materiallar | 8 866,5 | 287,9 | 7,7 | 4 715,1 | 219,2 | 10,9 | 4 151,4 | 447,1 | 5,8 |
| Hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar | 3 317,8 | 254,7 | 2,9 | 3 317,8 | 254,7 | 7,7 | | - | - |
| Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o‘xshash mahsulotlar | 12 882,9 | 262,6 | 11,2 | 1 023,2 | 155,1 | 2,4 | 11 859,7 | 279,2 | 16,6 |
| Sanoat tovarlari | 12 993,1 | 555,7 | 11,3 | 10 284,4 | 603,9 | 23,7 | 2 708,7 | 426,4 | 3,8 |
| Mashinalar va transport asbob-uskunalari | 45 658,4 | 288,5 | 39,8 | 893,4 | 700,1 | 2,1 | 44 765,0 | 285,1 | 62,6 |
| Turli xil tayyor buyumlar | 2 238,1 | 286,5 | 1,9 | 635,3 | 1 810,5 | 1,5 | 1 602,8 | 214,8 | 2,2 |
| Xizmatlar | 4 272,1 | 355,3 | 3,7 | 109,2 | - | 0,3 | 4 162,9 | 346,2 | 5,8 |

Joriy davrda import qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibi tahlili shuni ko‘rsatdiki, 2022- yilning yanvar-iyun oylarida 2021- yilning mos davriga nisbatan

nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg‘idan tashqari importining ulushi 4,9 % dan 8,5 % gacha o‘sdi, mashinalar va transport asbob-uskunalari 42,5 % dan 39,8 % ga, turli xil tayyor buyumlar ulushi esa 2,1 % dan 1,9 % ga kamaydi.




**IMPORT TARKIBI DINAMIKASI**
***(2021- yil yanvar-iyun, ulushi, % da)***

| XSST tarkibi | 2020-yil | 2021- yil | 2022- yil |
|---|---|---|---|
| **Jami import** | **100,0** | **100,0** | **100,0** |
| shu jumladan: | | | |
| Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar | 13,5 | 16,1 | 12,9 |
| Ichimliklar va tamaki | 0,0 | | - |
| Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg‘idan tashqari | 9,7 | 4,9 | 8,5 |
| Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shungao‘xshash materiallar | 5,4 | 8,3 | 7,7 |
| Hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar | 3,0 | 3,5 | 2,9 |
| Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o‘xshash mahsulotlar | 17,6 | 13,2 | 11,2 |
| Sanoat tovarlari | 4,7 | 6,3 | 11,3 |
| Mashinalar va transport asbob-uskunalari | 31,4 | 42,5 | 39,8 |
| Turli xil tayyor buyumlar | 8,5 | 2,1 | 1,9 |
| Xizmatlar | 6,2 | 3,2 | 3,7 |

Xizmatlar importining tahlili shuni ko‘rsatdiki, 2022- yilning yanvar-iyun oylarida 2021- yilning yanvar-iyunga nisbatan jami importdagi ulushi 3,2 % dan 3,7 % ni tashkil etdi.




## ALOHIDA IMPORT TOVARLAR
*(2022- yil yanvar-iyun oylari, ming AQSH. doll.)*







## XSTT BO‘YICHA IMPORT QILINGAN AYRIM TURDAGI MAHSULOTLAR TARKIBI
*(2022-yil yanvar-iyun)*

| Mahsulot nomi | Ming AQSh dollari | o‘zgarish sura‘tlari, % da |
|---|---|---|
| **Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar** | | |
| Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar | 10 108,2 | 132,7 |
| Tirik hayvonlar | 2 303,6 | 51,4 |
| Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar | 148,0 | 371,8 |
| Sabzavotlar va mevalar | 469,1 | 770,3 |
| Go‘sht va go‘sht mahsulotlari | 129,8 | 47,0 |
| Shakar mahsulotlari va asal | | |
| Sut mahsulotlari va qush tuxumlari | 231,5 | 69,4 |
| Baliq (dengiz sutemizuvchilari bo‘lmagan), qisqichbaqa simonlar, mollyuskalar va suvda suzuvchi umurtqasizlar va ulardan tayyorlangan yarimtayyor mahsulotlar | 529,3 | 491,9 |
| Har xil oziq-ovqat mahsulotlari va preparatlar | 701,2 | 56,4 |
| Hayvonlar uchun ozuqa | 246,2 | 950,6 |
| **Ichimliklar va tamaki** | | |
| Ichimliklar | 10,0 | - |
| **Nooziq-ovqatxomashyo, yoqilg‘idantashqari** | | |

| | | |
|---|---|---|
| Probka va yog'och-taxtalar | 9 474,7 | 165,7 |
| Tabiiy kauchuk (shu jumladan sintetik kauchuk va qayta ishlangan kauchuk) | 89,1 | 227,3 |
| Hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari | 92,4 | 9,1 |
| O'g'itlar uchun xomashyo va mineral xomashyo | 6,0 | - |
| To'qimachilik tolalari | | |
| Qog'oz va makulatura | | |
| Yog'li urug'lar va yog'li mevalar | 63,3 | |
| **Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar** | | |
| Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar | 7 247,4 | 96,3 |
| Ko'mir, koks va briketlar | 1 619,1 | 110,9 |
| Tabiiy yoki sun'iy gaz | | |
| **Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar** | | |
| O'simlik moylari va yog'lari | | |
| Hayvon va o'simlik moylari va yog'lari | 3 317,8 | 91,3 |
| Hayvonlar moylari va yog'lari | - | - |
| **Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar** | | |
| Birlamchi shakldagi plastmassalar | 1 665,6 | 142,9 |
| Bo'yaydigan va terini oshlovchi moddalar va bo'yoqlar | 130,4 | 176,0 |
| Kimyoviy materiallar va mahsulotlar | 6 675,4 | 83,4 |
| Organik kimyo moddalari | 4 287,8 | 134,2 |
| Birlamchi shaklda bo'lmagan plastmassalar | - | - |
| Noorganik kimyo moddalari | 0,4 | 0,6 |
| Efir moylari, resinoidlar va parfyumeriya moddalari; tualetga tayyorgarlik, jilolash va yuvish vositalari | 13,2 | 161,0 |
| O'g'itlar | 109,3 | 51,4 |
| **Sanoat tovarlari** | | |
| Cho'yan va po'lat | 1 301,2 | 167,1 |
| Rezina buyumlari | 153,8 | 59,4 |
| Boshqa boshqa bo'lmagan metall buyumlar | 425,7 | 71,0 |
| To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar | 126,5 | 144,2 |
| Ruda metall bo'lmagan mineral mahsulotlar. | 456,9 | 61,3 |
| Probka va daraxtdan tayyorlangan buyumlar (mebeldan tashqari) | 10 478,8 | 210,5 |
| Qog'oz, karton va qog'oz massasi, qog'oz yoki kartondan tayyorlangan buyumlar | 50,2 | 151,2 |
| Rangli metallar | | |

| | | |
|---|---|---|
| **Mashinalar va transport asbob-uskunalari** | | |
| Energiya generatori mashinalari va asbob-uskunalar | 208,5 | 2,5 |
| Aniq sohalar uchun maxsus mo‘ljallangan mashinalar | 33 040,1 | 152,8 |
| Sanoat uchun maxsus bo‘lmagan mashinalar va asbob-uskunalar va ularning detallari | 7 007,1 | 103,4 |
| Elektr mashinalari, apparatlar, asboblar va ularning elektr qismlari | 1 342,2 | 89,2 |
| Elektr aloqasi, ovozni yozish va eshittirish apparaturalari va uskunalari | 105,2 | 1,5 |
| Metallarni qayta ishlash mashinalari | 1 116,6 | 19,2 b |
| Kantselyariya mashinalari va ma’lumotarni avtomatik ravishda qayta ishlash uchun asbob-uskunalar | 20,3 | 44,8 |
| Avtomobillar | 2 818,4 | 75,4 |
| Boshqa transport vositalari | | |
| **Turli xil tayyor buyumlar** | | |
| Har xil tayyor buyumlar | 723,2 | 435,7 |
| Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari | 1 273,5 | 86,5 |
| Blokli binolar, suv o‘tkazish, kanalizatsiya isitish va yoritish uskunalari uchun armatura va mahkamlash moslamalari | 204,3 | 10,3 |
| Poyabzal | 1,2 | 120,0 |
| Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari | 3,4 | 10,6 |
| Mebel va uning qismlari, yotar joy buyumlari, matraslar, matraslar uchun tirgaklar, yostiqlar va shunga o‘xshash tikilgan mebellar | 32,2 | 138,8 |
| Fotografik apparatura, uskuna, ishlatiladigan materiallar va optik buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan; soatlar | 0,4 | 7,1 |
| **Xizmatlar** | | |
| Boshqa ish yuzasidagi xizmatlar | 3 271,0 | 120,8 |
| Transport xizmatlari | 124,8 | 142,8 |
| Texnik xizmat ko‘rsatish va ta’mirlash xizmatlari | 344,3 | 19,9 |
| Moliyaviy xizmatlar | 532,0 | 93,0 |

Turli xil tayyor buyumlar importi hajmlarining kamayishiga maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari (86,5 % ga pasaygan), Blokli binolar, suv o‘tkazish, kanalizatsiya isitish va yoritish uskunalari uchun armatura va mahkamlash moslamalari (10,6 % ga pasaygan) importining kamayishi ta’sir qilgan.

Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar importi kamayishiga esa, Tirik hayvonlar (51,4 % ga pasaygan) importining kamayganligi bevosita ta’sir etgan.

**MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARDAN TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI**
***(yanvar-iyun oylari, mln. AQSh dollari, ulushi,% da)***




Hisobot davri yakunlariga ko‘ra, import bo‘yicha hamkor davlatlar orasida Xitoy Xalq Respublikasi umumiy import hajmida 37,3 % ulushi bilan Rossiya Federatsiyasini (25,2 %) ortda qoldirgan holda birinchi o‘rinni egalladi.

2022- yilning yanvar-iyun oylari yakuni bo‘yicha Qoraqalpog‘iston Respublikasi tomonidan 42 davlat bilan tovarlar va xizmatlar importi amalga oshirildi.

## TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTIDAGI YIGIRMATA YIRIK HAMKOR DAVLATLAR
*(yanvar-iyun oylari)*

| Davlat nomi | Ming AQSH dollari | | oʻsish surʻati, % da | | oʻrni | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | 2021-y. | 2022-y. | 2021-y. | 2022-y. | 2021-y. | 2022-y. |
| Xitoy Xalq Respublikasi | 20880,6 | 42816,9 | 172,0 | 205,1 | 1 | 1 |
| Rossiya Federatsiyasi | 18540,6 | 28943,5 | 156,0 | 156,1 | 2 | 2 |
| Qozogʻiston | 11178,8 | 11534,8 | 163,5 | 103,2 | 3 | 3 |
| Koreya Respublikasi | 9393,1 | 6778,5 | 76,8 | 72,2 | 4 | 4 |
| Turkiya | 5559,5 | 5797,4 | 781,1 | 104,3 | 8 | 5 |
| BAA | 3088,4 | 2905,7 | 1358,5 | 94,1 | 10 | 6 |
| Litva | 537,7 | 2593,7 | 142,1 | 482,4 | 22 | 7 |
| Soedinennoe Korolevstvo | 458,7 | 1707,6 | 82,8 | 372,3 | 25 | 8 |
| Qirgʻiz Respublikasi | 1908,4 | 1703,6 | 284,8 | 89,3 | 11 | 9 |
| Yaponiya | 160,7 | 972,6 | 86,7 | 605,1 | 32 | 10 |
| Germaniya | 5019,0 | 798,7 | 1465,2 | 15,9 | 9 | 11 |
| Ruminiya | 661,8 | 697,3 | 70,5 | 105,4 | 19 | 12 |
| Estoniya | 41,5 | 693,6 | 174,9 | 1669,8 | 37 | 13 |
| Polsha | 716,5 | 669,3 | 103,2 | 93,4 | 17 | 14 |
| Eron | 1414,8 | 641,9 | 139,3 | 45,4 | 13 | 15 |
| Turkmaniston | 1155,0 | 638,6 | 147,4 | 55,3 | 15 | 16 |
| Niderlandiya | 1183,7 | 544,9 | 666,6 | 46,0 | 14 | 17 |
| Latviya | 1630,7 | 510,7 | 82,5 | 31,3 | 12 | 18 |
| Belarus | 444,2 | 453,4 | 137,4 | 102,1 | 26 | 19 |
| Avstriya | 389,9 | 451,6 | 71,5 | 115,8 | 27 | 20 |

Shuni ta'kidlash kerakki, Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Qozogʻiston, Koreya Respublikasi, Turkiya kabi mamlakatlar Qoraqalpogʻiston Respublikasiga tovar va xizmatlar importidagi yirik hamkor davlatlar birinchi yigirmataligiga kirdi.

Yetti yirik hamkor davlatlar (Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi,Qozog‘iston, Koreya Respublikasi, Turkiya, Litva va BAA Respublikasi) jami importning 88,6 % ulushini tashkil qildi, bu 86,6 mln. AQSh dollarini tashkil etdi.

**RESPUBLIKA IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI**
***(2022- yil yanvar-iyun oylari, % da)***




Mamlakatdagi sarmoyaviy muhit yaxshilanganisari ushbu sohada amalga oshirilgan islohotlar natijasida moshina va uskunalar, shuningdek, ularning qismlari importining o‘sishi tabiiydir. Shunday qilib, Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Qozog‘iston, Koreya Respublikasi tomonidan kiritilgan

katta hajmdagi investitsiyalar natijasida, mahsulotlar importi hajmida ushbu mamlakatlarning yuqori ulushi saqlanib qolmoqda.

**XIZMATLAR IMPORTI TARKIBI**
***(2022-yil yanvar-iyun oylari, ulushi, % da)***




2022- yilning yanvar-iyun oylari yakuni bilan xizmatlar importi hajmi 4 272,1 ming AQSh dollarini yoki jami import hajmining 3,7 % ini tashkil etdi va o‘tgan yilga nisbatan 0,5 % ga kamaydi. Xizmatlar importi tarkibining asosiy ulushi boshqa ish yuzasidagi xizmatlar (76,6 %), moliyaviy xizmatlar (12,4 %) dan iborat bo‘ldi. Shuningdek, texnik xizmat ko‘rsatish va ta’mirlash xizmatlar va (8,1 %) va transport xizmatlari (2,9 %) tashkil etdi.

**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi bo‘limi**
**Tel: (61) 224-92-06**